

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

BO'ZCHILIK ASOSIDA SHAKLLANGAN XALQ MAQOLLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Farmonova Nazirabegim Sadriddinovna

Osiyo xalqaro universiteti 3-FT (o')-24 guruh talabasi

Annotatsiya: Maqol arabcha “qavvola” so‘zidan olingan bo‘lib “aytmoq yoki so‘zlamq” ma‘nolarini anglatadi. Maqollarda xalqning necha ming yillar davomida turmushda sinalib, anglangan haqiqatlar ixcham axloqiy baho tarzida umumlashirilgan bo‘ladi. O‘zbek xalq maqollari uzoq davrlar davomida yashab kelmoqda. Alohida janr sifatida ham maqollar shakllangan. Avloddan avlodga, og‘izdan og‘izga bizgacha yetib kelmoqda. Ota-bobolarimizdan meros sifatida qo‘llaniladigan nasihat desak ham adashmaymiz.

Kalit so‘zlar: maqol, sipoh, hut, omoch, yer tanobi, hammol, qantar

Аннотация: пословица происходит от арабского слова “qavvola”, “что означает говорить или говорить”. В пословицах истины народа, проверенные и осознанные в браке на протяжении многих тысячелетий, будут обобщены в виде лаконичных моральных оценок. Узбекские народные пословицы существуют уже давно. Также как отдельный жанр сформировались пословицы. Из поколения в поколение, из уст в уста доходит до нас. Мы не ошибемся, даже если скажем увещание, которое передается по наследству от наших предков.

Ключевые слова: пословица, сипох, хижина, плуг, земной таноби, ветер, кантар

Abstract: The proverb comes from the Arabic word “qavvola”, which means to speak or to speak. In the proverbs, the truths of the people, tested and realized in marriage for many millennia, will be summarized in the form of concise moral assessments. Uzbek folk proverbs have been around for a long time. Proverbs have also formed as a separate genre. From generation to generation, word of mouth reaches us. We will not be mistaken, even if we say an admonition that is inherited from our ancestors.

Keywords: proverb, sipoh, hut, plow, earth tanobi, wind, kantar.

Ma'lumki, maqollar xalqning ma'naviy madaniyati, urf-odati, kasbi, turmushi bilan bevosita bog'liq bo'lib, qisqa, ixcham, ma'no jihatidan salmoqdor birliklar sifatida har bir davr ruhiga mos keladi. Chunki hozirgi mustaqillik, milliy qadriyatlarning tiklanish davri so'zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo'lgan o'zbek adabiy tilini chuqur egallashni, fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta'sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Bu esa publisistik va badiiy matnlarda faol qo'llanuvchi maqollarning lingvistik tadqiqiga oid ilmiy tadqiqotlarning hozirgi vaqtda dolzarb va muhimligidan dalolat beradi.

Xalqimiz mustaqillikka erishgach, o'zbekona urf-odatlar, rasm-rusumlar, asrlar davomida yaratilgan xalq og'zaki durdonalari o'zining haqiqiy bahosini topdi. Mustaqillikning birinchi kunlaridanoq respublikamizda xalqimizning milliy qadriyatlari, madaniyati, manaviyati hamda til madaniyatiga katta e'tibor qaratila boshlandi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq uzoq yillar davomida saqlanib, bizga

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

meros bo'lib qolgan xalqimizning qadriyatlari va madaniyatimizning tiklanishiga erishildi¹. Xalq og'zaki ijodi durdonalari o'zining eng qadimiy va betakrorligi, yuksak ijodiy salohiyatga ega ajdodlarimizning ko'p asrlik an'analari, turmush tarzi, tarixi, dunyoqarashi, turli e'tiqodlari haqida teran va mukammal ma'lumot beruvchi ma'naviy va madaniy oltin merosimiz hisoblanadi.

Maqollarni o'rganmay turib, “xalqlarning kelib chiqishi va etnik tarixi, dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi bo'lgan xalq, uning madaniyati va turmushining o'ziga xosliklarining shakllanishi haqidagi tarixiy fan “etnografiyani chetlab o'tish mumkin emas”. Hozirgi zamon tilshunoslik fanida maqollarning kasb-hunar doirasidagi talqini deyarli o'rganilmagan. Maqol – jamiyat “parchasi”ning modelidir. Shu bois uni o'rganmasdan birorta dunyo jamiyatini tushunishning ma'nosi yo'q. Bu noyob durdonalarda xalqimizning yaratuvchilik, zukkolik, donolik kabi fazilatlari o'z ifodasini topgan. Mazmunan boy, shaklan go'zal bu badiiy boyliklarimiz hozirgi kunda xalqimizga va millionlab zamondoshlarimizga xizmat qilmoqda.

Bo'zchi – 1. Bo'z to'quvchi kosib. 2. Katta yaproqli, mayda boshqosimon gulli yovvoyi o't.

Bo'yra – tozalangan qamish cho'pidan to'qilgan to'shama.

1. Bo'zchi belboqqa yolchimas, Temirchi to'qaga.
2. Bo'zchi bilganini to'qiydi.
3. Bo'zchi belboqqa yolchimas, charxchi chachvoqqa.
4. Bo'zchi bilganini to'qiydi, mulla bilganini o'qiydi.
5. Bo'zchi ishtonga yolchimas, temirchi taqaga.
6. Bo'zchi bilganini to'qiydi, mulla bilganini o'qiydi.
7. Bo'zchi tiq-tiq etar, ko'nchi pulni suzar.
8. Bo'zchining hunari to'qigan bo'zidan ko'rinadi.
9. Bo'yrachi holvachi bo'laman deb ko'zini chopog' bosdi.
10. Bo'yrachi to'quvchi bo'lsa, kiyishing bordon bo'ladi.
11. Hali bo'zchi, hali dukchi.
12. G'o'zani tuya yedi, bo'zchi mehnatda qoldi.
13. Bo'zchi belboqqa yolchimas, kulol – mo'ndiga.
14. Bo'zchi ishtonga yolchimas, Temirchi – taqaga.
15. Bo'zchi bilganini to'qiydi. Baxshi bilganini o'qiydi.
16. Bo'zchi bilganini to'qiydi, Mulla bilganini o'qiydi.
17. Bo'zchi tik-tik etar, Ko'nchi po'lni suzar.

¹Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. – Toshkent, 1997. – B.317.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

18. Bo‘zchi ketidan yugurgancha, Igna ketidan yugur.

19. G‘o‘zani tuya yedi, bo‘zchi mehnatda qoldi.

20. Mulla bilganini o‘qir, bo‘zchi bilganini to‘qir.

21. Bo‘yoqning yaxshisi – bo‘zchining boyligi.

O‘tmishda inqilobdan avvalgi ijtimoiy tengsizlik, haq-huquqsizlik hukm surgan zamonlarda bevosita moddiy boyliklar yaratgan mehnatkashlar o‘z mehnatlari samarasidan bahramand bo‘la olmaganlar. Bo‘zchi belboqqa yolchimas, kulol – mo‘ndiga” maqolida kulol o‘zi yasaydigan idish-tovoqlarga azbaroyi yolchimaganidan mo‘ndining o‘zidan suv ichishga majbur bo‘ladi².

Bo‘yrachi to‘quvchi bo‘lsa, kiyishing bordon bo‘ladi. Bordon – bo‘yraning dag‘al bir turi. Qadimda undan xalta qilib, don-dun solib qo‘yardilar. Ya‘niki, har bir ishni o‘z ustasi qilishi kerak. Qo‘lidan kelmaydigan odam bir ishni qilar bo‘lsa qo‘pol, dag‘al, xunuk qilib, buzib qo‘yadi.

Mulla bilganini o‘qir, bo‘zchi bilganini to‘qir. Har bir kasb egasi o‘z intellektual salohiyati, qobiliyatini ishga solgan holda egallagan kasbining sir-asrorini boshqalardan mukammal biladi. Mullaning ishini bo‘zchi, bo‘zchining ishini mulla eplay olmaydi.

Xalqimiz o‘z avlodiga insoniyat tarixidagi eng ibratli fazilatlar meros bo‘lishini orzu qilgan va hozir ham shunday. Bu oliy tilak xalqimizning maqol-u topishmoqlari, afsona va rivoyatlari, latifa-yu loflari, xalq qo‘shiqlari, termalari, ertak-u dostonlari, askiya va allalari kabi bebaho durdonalarida o‘zining yorqin ifodasini topgan. Hech ikkilanmay aytish mumkinki, xalqimizning barcha fazilati, falsafasi, dunyoqarashi, turli hayotiy vaziyatlarga munosabati o‘zbek xalq maqollarida aks etgan. Vatan va vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, to‘g‘rilik, yaxshilik, adolat va insof, do‘stlik, tinchlik, mardlik va jasurlik, donolik, ilm-hunar, tarbiya va odat, odob-axloq, mehmon va mehmondo‘stlik, go‘zallik, kamtarlik, baxt va omad, sabr-qanoat, muhabbat, oila va qo‘shnichilik, umid va ishonch, erk va ozodlik, or-nomus, g‘urur, samimiylik, vaqt va fursat qadri, yoshlik va qarilik haqidagi maqollar ana shular jumlasidandir. Xalqimizning ko‘p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining oynasi, xalqimizning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari o‘zligini, donishmandligini aks ettirgan maqollar qadim-qadimdan yozma va og‘zaki adabiyotda ham, og‘zaki nuqtda ham qo‘llanib kelgan va hozir ham shunday.

² Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Hikmatnoma: O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zb. Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 528 b.

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Adabiyotlar:

1. Oxunjonovna, B. D. (2023). MAHMUD QOSHG'ARIYNING “DEVONU LUGOTIT TURK” DAGI SHAKLINI HAM, MAZMUNINI HAM SAQLAGAN IDIOMALAR TAHLILI.
2. Bobojonova, D. (2024). TYPES OF OCCUPATIONS RELATED TO THE LIFE OF THE UZBEK PEOPLE (within the profession of blacksmithing). Modern Science and Research, 3(2), 739–746. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/29461> More Citation Formats
3. Bobojonova, D. . (2024). MANIFESTATION OF LEXEMES RELATED TO THE PROFESSION OF BLACKSMITHING IN FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 3(1), 687–693. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/28380> More Citation Formats
4. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). Mahmud Kashgari's Work "Devonu Lug'otit Turk" is an Important Scientific Heritage. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(10), 538–543. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/2169>
5. Bobojonova, D. (2023). MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IS AN IMPORTANT SCIENTIFIC HERITAGE. Modern Science and Research, 2(12), 742–748. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/27184>
6. Bobojonova, D. (2023). THE ROLE OF MAHMUD KASHGARI'S WORK "DEVONU LUG'OTIT TURK" IN THE DEVELOPMENT OF THE UZBEK LANGUAGE. Modern Science and Research, 2(4), 568–5672. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/19394> More Citation Formats
7. Okhunjonovna, B. D. (2023). Comparative Analysis of Proverbs in "Devonu Lug'Otit Turk" and Currently Available. European Journal of Higher Education and Academic Advancement, 1(2), 194–198. Retrieved from <https://journal.silkroad-science.com/index.php/EJHEAA/article/view/139>
8. Bobojonova Dilnoza Okhunjonovna. (2023). A Proverb is a Product of Folk Wisdom. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 333–338. Retrieved from <https://grnjournal.us/index.php/STEM/article/view/1509>
9. Oxunjonovna, B. D. (2022). O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA LISSONIY INTERFERENSIYANING KO'RINISHLARI. PEDAGOGS jurnali, 14(1), 22-25.
10. Bobojonova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF UZBEK FOLK PROVERBS. Modern Science and Research, 2(10), 670–675. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25751>
11. Bobojonova, D. (2023). MAHMOUD QOSHGARI'S "DEVONU LEXICOTIT TURK" AND ITS PLACE IN LINGUISTICS. Modern Science and Research, 2(10), 538–540. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/24506>
12. Bobojonova, D. . (2023). ANALYSIS OF IDIOMS THAT PRESERVE BOTH FORM AND CONTENT IN MAHMUD KASHGARI'S "DEVONU LUG'OTIT TURK". Modern Science and Research, 2(9), 64–67. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/23909>
13. Okhunjonovna, B. D. (2024). Analysis of Folk Proverbs Based on Medicine. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 4(3), 125-131.